

O`RTA OSIYO DAVLATLARINING XVIII-XIX ASR BIRINCHI
YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI VA KARTOGRAFIK
TADQIQOTLAR

Ashurov Sodiqjon

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo`nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: sodiqjonashurov536@gmail.com

Telefon raqami: +998915137504

Oqbo`tayev Abdulaziz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo`nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: oqbo`tayevabdulaziz@gmail.com

Telefon raqami: +998904119202

G`ulomov Jahongir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo`nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: g`ulomovjahongir@gmail.com

Telefon raqami: +998936934033

Qurbonov Hasan

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo`nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: samadkdkdksks@gmail.com

Telefon raqami: +998938880539

Annotatsiya. O`rta Osiyo davlatlarining geografik joylashish o`rni va shu bilan birgalikda qaysi davlatlar bilan chegaradosh, qancha hudularni o`z ichiga olganligini ushbu maqolada bayon qilingan va shu bilan birgalikda XVIII- XIX asrning birinchi yarmidagi holati ham bayon qilingan.

Kalit so`z. O`rta Osiyo davlatlari, xonliklar, Zarafshon, Buxoro, siyosiy chegaralanish, Shahrisabz, Hisor, Badaxshon, Toshkent, Chimkent

Kirish. O`rta Osiyo Sharqiy Yevropa bilan juda qadim zamonlardan bizning eramiz boshlanmasdan ilgari qadim iqtisodiy aloqa bog`lagan edi. Bu aloqalar keying davrlarda ham mavjud bo`lib, X asrda ayniqsa Xorazm, Markaziy Osiyo, Xazar

hoqonligi bilan, u orqali esa, Rossiya bilan yaqindan iqtisodiy aloqalar o`rnatgan. XVIII asr oxiri XIX ars boshlarida Samarqand Buxoro amirligining markazi edi. Amirlik Eron, Xiva va Qozoq tuzumlari bilan chegaralangan edi. Zarafshon Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surxondaryo viloyati hozirgi Tojikiston hududidagi Hisor, Xo`jand, Panjob, Panjikend va Zarafshon daryosining yuqori qismi, Turkamistonning Murg`ob qismigacha barcha yerlari, Nurota yerlarning bir qismi Chorjuy, Qarshi, Balx, Shahrisabz, Kitob kirgan. XIII asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligining mustahkamlanishi davlat tarqoqligini tamomila tugata olmadi. Yaqin atrofa amir hokimiyatiga bo`ysunmaydigan bir qator beklilari mavjud edi. Masalan, Jizzax va O`ratepa hamda boshqa mustaqil va yarim mustaqil tumanlar Buxoro xalqi o`troq va ko`chmanchilardan iborat edi.

Manbalarga nazar soladigan bo`lsak muzliklar davri tugashi va iliq kunlar boshlanishi bilan, Turkiston, Hisor va Zarafshon tog` tizmalaridagi qalin muzliklar, abadiy qorliklar erib, ulardan hosil bo`lgan ulkan toshqinlar Zarafshon daryosi bo`ylab oqqan. Uning o`sha zamonlardagi toshqinlari, shubhasiz afsonalarda tasvirlangan «Nuh to`foni» ni eslatadi. O`sha zamonlarda Zarafshon o`z vodiysida nihoyatda keng maydon bo`ylab yoyilib oqqan. Uning o`ng qirg`og`i hozirgi Samarkand viloyatida Payariq va Xatirchi adirlarini, so`l qirg`og`i esa Pastedarg`om va Kattaqo`rg`on qirlarini yuvib o`tgan.

Bu katta oqimning biror tomchisi ham Zarafshon vodiysining yuqori va o`rta qismlarida na dehqonchilik, na obodonchilik uchun sarf bo`lmay, u hozirgi Navoiy shahri yaqinida tor Xazora darbandini yorib o`tib, konussimon Buxoro vohasiga oqib kirgan. Buxoro vohasida u qadimgi Xitfar (Vobkentdaryo), Rudizar (Shohrud), Qorako`ldaryo, Moxondaryo va Tayqir kabi bir nechta tarmoqlar hosil qilib, butun voha bo`ylab yoyilib oqqan. O`sha zamonlarda hozirgi Buxoro viloyatining vodiylar qismi Zarafshonning toshqin suvlaridan hosil bo`lgan ko`l va botqoqliklardan iborat bo`lib, ular qalin butazor, chakalakzor va to`qayzorlar bilan qoplangan. Buxoro vohasining bu qadimiy tabiiy manzarasi X asrda yashagan tarixchi Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida quyidagicha tasvirlanadi: «Hozirda Buxoro (o`rnashgan) bu mavze, (ilgari) botqoqlik bo`lib, uning ba`zi erlarini to`qayzor, daraxtzor va ko`kalamzorlar tashkil etgan, ayrim joylari esa shunday bo`lganki, biron hayvon ham oyoq qo`yishga joy topa olmagan. Buning sababi shuki, Samarkand tomonidagi viloyatlarda tog`larda qor erib, suvi (oqib kelib) o`sha joyga yig`ilib yotar edi. Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uning «Rudi Mosaf»-«Mosaf daryosi» deb ataydilar. Bu daryoga ko`p suv yig`ilgan, u bir talay erlarni yuvib, o`pirib, loyqalarni surib kelgan va natijada bu botqoqliklar to`lib qolgan.

Varaxsha. Bir nusxa (kitob)da Varaxsha o`rnida Rajfandun deb yozganlar. Katta qishloqlardan biri. U Buxoro shahridan qadimiyroqdir. Unda podshohlarning qarorgohi joylashgan. Yilning oxirida esa yigirma kun bozor qilib, yigirma birinchi

kuni navro`z - yangi yil bayramini o`tkazadilar. Buni «Navro`zi kishovarzon» - «Dehqonlar navro`zi» deydilar. Buxoro dehqonlari (yil kunlari) hisobini o`sha kundan boshlaydilar va bunga e`tibor beradilar.

Baykand. Uni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. Baykand aholisi biror kishining Baykandni qishloq deb atashiga rozilik bergan emaslar. Baykandda Buxoro qishloqlari sonicha, mingdan ortiq rabot bo`lgan. Farab shaharlar jumlasidan bo`lib, alohida joylarga ega, Jayhun daryosi labidan to Farabgacha bir farsang, suv toshgan vaqtlarda esa yarim farsang keladi. Jayhun suvi (toshib) Farabgacha borib etgan. Aholi joylashuvida shahriston, ark, rabot hamda voha bo`ylab mavjud tepalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, O`rta Osiyoda XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida hududiy joylanish haqida ma`lumotlarga nazar soladigan bo`lsak, har bir viloyat joylashish o`rniga qarab biror sohada yoki rivojlanishda ham yaxshi natijalarga erishishmoqda, masalan, bog`dorchilikni oladigan bo`lsak, issiq o`lkalarda mo`l-ko`l hosilga ega bo`lmoqda, Buxoroni ham oladigan bo`lsak vohasida bir qancha tepaliklar tepalar saqlangan bo`lib, ular ham hududining geografik joylashuvi va aholi hayot tarsi natijasida vujudga kelganligi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. Nazirov, B. (2022). O`zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. TAFAKKUR AVLODI.
2. Safarovich, N. B. (2022). Distribution of Modern Sports in Central Asia in Colonial Conditions (Late XIX and Early XX Centuries) Spread of Modern Sports in Middle Asia Under Colonial Conditions (End of the XIX Century-Beginning of the XX Century). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY,
3. (12), 21-29.3. Nazirov, B. S. (2021). O'ZBEKISTONDA 2017-2020 YILLARDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT SOHASIDA YANGI ME'YORIY-HUQUQIY TIZIMNING YO'LGA QO'YILISHI.
4. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Bobumoma. — T. Yulduzcha, 1989. 3. Panjiyev, J. T. O. G. L., Bozorov, Q. D. O. G. L., & Xolboyev, J. L. O. G. L. (2022). Artificial irrigation system during the reign of Amir Temur and the Timurids. Science and Education, 3(1), 154-156.
5. Nazirov, B. (2020). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спортнинг ривожланиш тарихи. СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР. 5. Nazirov, B. (2020). “IMOMUL HUDA–HIDOYATGA BOSHLOVCHI IMOM. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS.
6. Yakubova, D. (2022). SURXONDARYO TARIXI. LESSON PRESS.